

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARIXIY MATERIALLAR VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Kosbergenov Raxat Maxsetbaevich

**Ajiniyoz nomidagi NDPI "Umumta'lim berish fanlari va masofadan o'qitish"
kafedresi assistent o'qituvchisi, Nukus.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17462030>

Tayanch so'zlar: strategiya, vatanparvarlik, bag'rikenglik, qadriyat, ta'lim-tarbiya, qonunlar, tarbiya, tarix.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [1] xalqimiz farovonligi va farzandlarimiz kelajagi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatning to'rtinchi yunalishida adolatli siyosat yuritib va inson kapitalini rivojlantirish zarurligiga alohida ahamiyat berilgan.

Mazkur farmon bo'yicha qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi"ning 70-maqsadida:

"Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish..." vazifalari yuklatilgan.

Darhaqiqat, inson kapitalini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, bu - o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri tarbiya, mukammal bilim berishdan iborat. Bu borada bolaning har tomonlama sog'lom bo'lib o'sishiga jiddiy ahamiyat qaratish muhim sanaladi. Zero, ayni vaktida mamlakatimiz aholisining 6,2 mln. nafari yoki 17 foizi Bo'lajak o'qituvchidan iborat. Ularning kelajagi uchun har tomonlama investitsiya kiritish ko'p karra ta'sir kuchiga ega ekanini, bu sarmoya ertaga yurtimiz taraqqiyoti yo'lida mislsiz naf keltirishini barchamiz yaxshi bilamiz.

Bugungi maktab Bo'lajak o'qituvchilari bilan tizimli ish olib borish uchun ularning psixologik holatiga baho berishimiz kerak.

Albatta, butun respublika bo'yicha bir xil baho berib bo'lmaydi, ammo ommaviy axborot vositalari, chet el tadqiqotchilarining fikricha har 15 yilda yangi avlod vakillari paydo bo'lmoqda. Ya'ni, keyingi asrda paydo bo'lgan 6 ta avlod bo'yicha puxta tadqiqotlar qilingan.

Bular: "Ovozsiz avlod" (1925-1945), "Bolajon avlod" (1945-1964), "X" avlod (1964-1979), "Y" avlod (1980-1995), "Z" avlod (1996-2010) va hozirgi kun avlodi - "Alfa" avlod. [2].

Tadqiqotchilarning fikricha, hozir maktablarimizda "Alfa" avlod vakillari ta'lim-tarbiya olishmoqda. Bu avlodning o'ziga xosligi shundaki, ular texnika, kompyuter davrida voyaga etmoqda. Bu avlodni ertak aytib, pand-nasihatlardan yoki shapaloq bilan tarbiyalay olmasiz, bu avlod virtual olamda tarbiyalanyapti. Pandemiya tufayli OTMlarida 2020-2021 o'quv yilida masofaviy ta'limni yo'lga qo'yilishi ham bu avlodni rag'batlantirdi.

Ma'lumotlarga ko'ra "....2019 yilda O'zbekiston Respublikasida 22,5 mln. nafar internetdan foydalanuvchilar ro'yxatga olingan, uyali aloqa mijozlari soni esa 22,8 mln., 4-avlod

mobil aloqa egalari 16 million nafar. Internetdan foydalanuvchilarning 60 foizi esa 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar! O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, 60 foiz yoshlar axborotni internetdan oladi, 62 foiz yigit-qiz global tarmoqdan mustaqil, ota-onalar nazoratisiz foydalanishadi. 80 foiz yoshlar ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga a'zo, O'zbekistonda "Facebook"dan foydalanuvchilar soni 69 foizga etgan, 30 foiz yoshlar internetda kuniga 15 daqiqadan 1 soatgacha o'tirsa, 36 foizi 1-3 soat, 12 foizi 3 soatdan ko'proq vaqt sarflaydi". [3,37].

Biz-g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. [4, 297].

Masala birdaniga hal bo'ladigan jarayon emas, biroq, yangi muammolarni esa eskicha yo'l bilan hal qilib bo'lmaydi... Yangi-yangi yo'nalishlar, noan'anaviy usullarni tadbiiq qilish juda dolzarb masala bo'lib turibdi. Hozirgi bo'lajak o'qituvchini quruq gaplar bilan hayron qoldirib bo'lmaydi, yuqorida qayd etilgandek, internet "ohangrabosi" barchani o'z domiga tortib, kecha-kunduz 24 soat mobaynida turli usul va uslublar bilan ularning ongiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu yo'nalishda yoshlarimizning dunyoqarashi, salohiyati qay darajada degan savolimizga quyidagi so'zlar bizni sergaklantirishi tabiiydir: "Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda" [5].

Bu bejiz emas, chunki, dunyoda ma'naviy tahdidlar kuchaygan, g'oyaviy-mafkuraviy kurash keskinlashgan bugungi kunda yoshlar o'rtasida zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga qo'shib qolish va shuning ta'sirida milliy qadriyatlarga bepisandlik holatlari tez-tez uchramoqda.

Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan xabarga ko'ra birgina Qashqadaryo viloyatida 2022 yilning besh oyi mobaynida maktabda bo'lajak o'qituvchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16 taga yoki 60 foizga oshgan. 2021 yilning dastlabki 5 oyida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan 27 ta huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lsa, joriy yilda ularning soni 43 taga oshgan. [6].

Tarixdan ma'lumki, rivojlangan davlatlar yuksalish marralariga milliy qadriyatlarga suyangani holda etib borganlar, xalqimiz tarixida bunga misollar juda ko'p, har qanday davrdagi millatning ruhiyati va tafakkurini o'rganish, xalqning ma'naviy mo'ljallari, ijtimoiy sa'y-harakatlari, erkinlikka mayli, shuningdek, jamiyat tabiatiga ta'sir etuvchi illatlar va ijtimoiy omillarni tadqiq etish taraqqiyot istiqbollari oldindan belgilab olish imkonini beradi.

Abu Nasr Forobiy jamiyatning ma'naviy xastaligiga nopoklik va mustamlakachilikni sabab qilib ko'rsatgan [7, 29].

Ertangi kundan umidi bo'lmagan, mehnat qilsa-da qadr topmagan shaxslar hayotdagi o'z ijtimoiy maqsadlarini yo'qotadilar, begonalashuv, alamzadalik, muammolar oldida yakkalik kayfiyati ortib boraveradi. Shu tariqa olomon safini to'ldirgan yoshlar o'z vatanlarini yo'qotadilar. "Ommaviy madaniyat" ning keng tarqalgan ko'rinishi sifatida milliy qadriyatimizga rahna solishga intilayotgan kosmopolitizmni alohida ta'kidlash joiz.

Kosmopolitizm - (yunoncha, “kosmopolites”-“dunyo fuqarosi”) [8, 370] g’oyasi asosida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, “inson – jahon fuqarosi” g’oyasini yoyish orqali davlatlar mustaqilligi hamda milliy madaniyat va ma’naviyat qadriyatlarini inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ’ib qiluvchi dunyoqarashni singdirishga, bu orqali vatanparvarlik tushunchasini yo’q qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

H.Haydaraliyev o’zining tadqiqot ishlarida dunyo miqyosida xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar to’g’risida ilmiy fikrlarni yuritib, u O’zbekistonda harbiy vatanparvarlik fazilatini yanada kengroq shakllantirishni ijtimoiy zaruriyatga aylanishini ta’kidlagan holda mamlakatimizda harbiy vatanparvarlik fazilatini shakllantirish omillarini o’z ilmiy ishida keltirgan. [9, 131].Tadqiqotchining fikr-mulohazalaridan kelib chiqqan holda ishda bo’lajak o’qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish omillarini tizimlashtirdik.

M.Quronov o’z asarlarida “vatanparvarlik – O’zbekistonni yagona vatanim deb bilish va syevish, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik, O’zbekiston tarixini, madaniy merosini hurmat qilish, unga qiziqish, istiqloлга ishonch, respublika manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, mahalliy, hududiy manfaatlardan ustunligini anglash va namoyon qilish”, deb talqin qiladilar.

Maktab davri-shaxs ruhiyatida tarbiyaning barcha turlarini amalga oshirishda eng maqbul davrligini inobatga oladigan bo’lsak, bu davrda vatanparvarlik tarbiyasida eng muhim palladir. Agar mamlakatimizda 2021-2022 o’quv yilida **10 130 ta** OTMLarida **6 246 491** nafar bo’lajak o’qituvchi tahsil olishgani va ular jami fuqarolarimizning 17 foizini tashkil qilishini inobatga oladigan bo’lsak, tadqiq qilinayotgan mavzu naqadar muhim ekanligini anglash qiyin emas.

Kuzatishlarimiz bo’yicha shuni qayd qilishimiz mumkinki, vatanparvarlikda mohiyatan uchta jihat e’tiborga loyiq: vatanparvarlik tuyg’usi tug’ma emas, u tarbiya jarayonida, ijtimoiy va hayotiy tajribada orttiriladi; vatanparvarlik tuyg’usi – bu shaxsning butun hayotini boshqaradigan chuqur shaxsiy tajriba; vatanparvarlik tuyg’usi alohida emas, u boshqa olijanob tuyg’u va fazilatlar bilan uzviy bog’liqdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil 5 aprel kuni xalq ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligining tahlili yuzasidan videoselektorda quyidagilarni ta’kidlab o’tdilar:

Agar rahbarlar, muallimlar yangi O’zbekistonga munosib harakat qilsa, farzandlarimizni davr talabiga mos o’qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini-zurriyodini ishonib beryapti. Bu juda katta mas’uliyat.

Mazkur yig’ilishda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratildi, jumladan, maktablarda ma’naviy muhitni tubdan yaxshilash bo’yicha yangi kontseptsiyani ishlab chiqish vazifasi qo’yildi.

Unda eng avvalo, bo’lajak o’qituvchilarda yoshligidan:

- o’zining mahallasi va qishlog’i hayotiga befarq bo’lmaslik hamda Vatanga muhabbat;
- oila, ota-ona va ustozlariga hurmat;

- ilm va bilim, harakat va intilish orqali katta marralarni egallash mumkinligini tushuntirish hamda zamonamiz qahramonlarining bosib o’tgan yo’llarini keng targ’ib qilish nazarda tutilishi qayd qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PQ-241-sonli “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga [19] muvofiq, xalq ta’limi vazirligi va barcha mutassaddi tashkilotlarga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

“.....ziyoli va nuroniylar, ilg‘or tadbirkorlar, klaster va sanoat korxonalarini rahbarlari, mashhur san’atkor, sportchi va aktyorlar, taniqli blogerlarni jalb qilgan holda maktab bo‘lajak o‘qituvchilari bilan uchrashuvlar, motivatsion suhbatlar va mahorat darslarini tashkil etsin;

maktab bo‘lajak o‘qituvchilari uchun «Vatanparvarlik» darslarini va poligonlarda 2 kunlik harbiy dala mashg‘ulotlarini o‘tkazish hamda ularni chavandozlar maktablariga jalb qilish choralari ko‘rsin, harbiy qism ofitserlari, serjantlari va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirokida «Vatan tinchligiga barchamiz mas’ul!», «Vatan ozodligi - baxt garovi!», «Vatanga xizmat - oliy fazilat» mavzularida davra suhbatlarini tashkil qilsin;

bo‘lajak o‘qituvchilarning me’moriy va tarixiy obidalar, madaniyat muassasalari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tashrifini uyushtirsin;

bo‘lajak o‘qituvchilarning qiziqishlari, talab va istaklaridan kelib chiqib sport musobaqalari, kontsert tomoshalari va san’at asarlari ko‘rgazmalarini o‘tkazsin;

buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo‘li hamda jahon tsivilizatsiyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissalariga oid targ‘ibot ishlarini olib borsin, ulug‘ allomalarning tug‘ilgan sanalariga bag‘ishlangan ilmiy haftaliklar, seminar va anjumanlar tashkil etsin;

hayotiy misollar asosida ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati va mas’uliyati haqida tushuntirish ishlarini olib borsin, ularni qiziqtirgan va xavotirga solayotgan masalalar bo‘yicha ochiq muloqotlar hamda o‘quv-seminarlarni tashkil etsin.

Demak, adabiyotlar tahlili asosida, vatanparvarlik-kishilarning ona yurtiga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan umuminsoniy va ma’naviy qadriyat bo‘lib, Vatan taqdiriga daxldorlik, ona yurti tarixi va bugungi kuni bilan faxrlantira oladigan tuyg‘u, desak bo‘ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. “Халқ сўзи”. 2022 йил 1 февраль № 23 (8085)
2. Бургутбоев И. “Қаршингизда “Альфа” авлод”. “Ишонч” газетаси, 2022 йил 10 феврал №18 (4614)
3. Шахриёров Б. “Туризм-миллий иқтисодийни ривожлантиришнинг муҳим драйвери”. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил 21 август №170 (692)
4. Мирзиёев Ш. М. “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. – Т.: “Ўзбекистон” 2017 йил, 331-бет.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сонли “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. (1-илова, 4-банд)
6. <https://kun.uz/news>, 14 июнь 2022 йил
7. Абу Наср Форобий. “Фозил одамлар шахри.” – Тошкент, “Халқ мероси”, 1993. 29-бет.
8. “Словарь иностранных слов”. – М.: “ГИИНС” 1955, -С.370,440

9. X.Хайдаралиев. “Талабаларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнларини такомиллаштириш”. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Наманган. 2021 й. Б.131.